

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.01.2020. K/T. 104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**QURONBOYEVA MOXINUR ODILBEK QIZI**

***FICUS CARICA VA MORUS MULTICAULIS* O‘SIMLIKLARI  
POLISAXARIDLARINING TUZILISHI, ULARNING BIOLOGIK  
FAOLLIKLARI**

**02.00.10 - Bioorganik kimyo**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Quronboyeva Moxinur Odilbek qizi**

*Ficus carica* va *Morus multicaulis* o‘simliklari polisaxaridlarining tuzilishi, biologik faolliklari..... **5**

**Куронбоева Мохинур Одилбек кизи**

Структура и биологическая активность полисахаридов растений *Ficus carica* и *Morus multicaulis*..... **23**

**Kuronboyeva Mokhinur**

Structure and biological activities of polysaccharides *Ficus carica* and *Morus multicaulis* plants..... **43**

## E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... **47**

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.01.2020. K/T. 104.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI**

**QURONBOYEVA MOXINUR ODILBEK QIZI**

***FICUS CARICA VA MORUS MULTICAULIS O‘SIMLIKLARI  
POLISAXARIDLARINING TUZILISHI, BIOLOGIK FAOLLIKLARI***

**02.00.10 - bioorganik kimyo**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K891 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) ([www.uzicps.uz](http://www.uzicps.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jauinbayeva Klara Sagindikovna**  
kimyo fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Normaxamatov Nodirali Saxobataliyevich**  
kimyo fanlari doktori

**Shomurotov Shavkat Abduganiyevich**  
kimyo fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Milliy Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail [plant.inst@icps.org.uz](mailto:plant.inst@icps.org.uz), ixrv@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘simlik moddalari kimyosi instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 77. Tel.: (+99871) 262-59-13, faks: (+99871) 262-73-48, e-mail: nhidirova@yandex.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**Sh. Sh. Sagdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, akademik

**N.K. Xidirova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, k.f.n., katta ilmiy xodim

**E.X. Botirov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab o‘simlik polisaxaridlariga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda, chunki, polisaxaridlar tabiiy xavfsiz, kam zaharli, immunogen xossalarni namoyon qilishi hamda tabiatda keng tarqalganligi bilan alohida e‘tibor qaratadi. O‘simlik polisaxaridlarining bunday biologik faol xususiyatlari uning tarkibi va tuzilishiga bog‘liq. Shu sababli, polisaxaridlarning tarkibi, makromolekulasining tuzilishi, biologik faolligini aniqlash va ularni amaliyotga tadbiiq qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, polisaxaridlar asosida antioksidant, diabetga, yallig‘lanishga, saratonga qarshi hamda immun tizimini faollashtiruvchi preparatlar ishlab chiqarishga bo‘lgan qiziqish ko‘paymoqda.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasining IV yo‘nalishida «Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi, tibbiyot muassasalarini arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarini o‘shishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish»<sup>1</sup> yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu boradagi vazifalarni bajarishda, dorivor o‘simliklar tarkibidan biologik faol polisaxaridlarni ajratib olish, ularning kimyoviy tarkibini turli fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash hamda ular asosida yangi samarali dori vositalarini yaratish va amaliyotga tadbiiq qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston hududida o‘sovchi *Moraceae* oilasiga mansub *Ficus carica L.* va *Morus multicaulis Perr.* o‘simliklarining polisaxaridlari, ularning fizik-kimyoviy xossalari haqida ma‘lumot yetarli emas. Asosan, flavonoidlari o‘rganilgan bo‘lib, O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi institutida furokumarinlar asosida vitiligo kasalligini davolash uchun psoboran (psoralen va bergapten aralashmasi) preparati yaratilgan. Shuning uchun ma‘lumotlarni kengaytirish maqsadida yetarli xomashyo bazasiga ega bo‘lgan *Moraceae* oilasiga mansub o‘simliklardan olingan polisaxaridlarning turlari, biologik faolligi va makromolekula tuzilishini o‘rganish dolzarb masalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi «2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>2</sup> gi PF-55-son farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida»<sup>3</sup>gi PF-60-son farmoni, hamda bu sohada qabul qilingan normativ hujjatlar, nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son farmoni

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni

rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» va VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** *Moraceae* oilasiga mansub *Ficus carica* o‘simliklari polisaxaridlarining xossalari, tuzilishi va biologik faolliklari quyidagi xorijiy yetakchi olimlar X. Jiang, L. Ye, A. Almeahmadi, M. Shahrabian, F. Li, G. Rao, R. Bashir, S. Z. Hussain, T. A. Hajam, H.S. Saleem, M.T. Gharibzahedi, B. Smit, Y. Guo, S.A. Mazhin, M.A. Zaker, H.B. Shahbazian, M.E. Azemi, N. Madanchi, H. Acay, Yang, V. Vang, E.Vang, Huiqing Lv, Changfeng Hu, Zhijun Xie, Ping Wang, Xuezhi, Chengping Wen, J. Du, M. Ergül va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

*Moraceae* oilasiga mansub tut o‘simliklari polisaxaridlarining xossalari, biologik faolliklari va tuzilishlari bo‘yicha tadqiqot ishlari quyidagi xorijiy olimlar: Y. Zhang, S. Yadav, J. Ai, R. Chen, X. Chjou, Q. Deng, M. Yang, S. Li, Q. Chjan, Y. Sun, H. Chen, F. Qiu, T. Z. He, R. Li, J. Zhou, X. Zhang, T. Zhang, J. Wang, M. Zhang, C. He, H. Chen, Q. Ma, R.K. Santhanam, Z. Xue, Q. Guo, X. Gao, H. Chen, M. P. Dimitrova, X. Chen, Z. Sheng, S. Qiu, H. Yang, J. Jia, J. Wang, C. Iang, S. Lim va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Yurtimizda faoliyat olib borgan olimlaridan D.A. Raximov, M.X. Sanavova tomonidan tutning *Morus alba*, *Morus rubra* va *Morus nigra* turlarining suvda eruvchan polisaxaridlari, pektin moddalari, gemitsellulozalari ajratib olingan bo‘lib, polisaxaridlarning faqat tarkibi, miqdorlari va *M. alba* o‘simligi polisaxaridining qandli diabetga qarshi faolligi aniqlangan. O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti olimlari X.N. Aripov, Sh.Sh. Sagdullayev, T.S. Sadikov, B.J. Elmuradov, R.K. Karimov, G.V. Zuxurova, S.S. Saidov, A.Sh. Abdurazaqovlar tomonidan benzimidazol xosilalari asosida qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va «Al‘bendazol», «Atsetamizol», «Propidamizol» preparatlarining yangi analoglari ishlab chiqilgan. Pektin, «Al‘bendazol» asosida «Al‘pek» preparati olingan va uning gel, kukun, tabletka dori shakllari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi institutining Yuqori molekulyar O‘simlik moddalari kimyosi laboratoriyasida “Mahalliy hudud o‘simliklarining polisaxaridlari, oqsillari xususiyatlari, tuzilishi va biologik faolliklari” mavzusidagi bazaviy fundamental Davlat byudjeti asosida amalga oshirilgan (2022-2024 yy).

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekiston hududida o‘sovchi *Ficus carica*, *Morus multicaulis* o‘simliklari barglaridan polisaxaridlarni ajratib olish, ularning xossalari, tuzilishi va biologik faolliklarini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

-*Ficus carica* va *Morus multicaulis* o‘simliklari barglaridan turli tipdagi polisaxaridlarni (suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalar, gemitsellulozalar) ajratib olish va ularning xossalari (miqdori, suvda eruvchanligi, qovushqoqligi, monosaxarid tarkiblari va molekulyar og‘irliklarini) tadqiq etish;

-*Ficus carica* va *Morus multicaulis* o‘simliklarining suvda eruvchan polisaxaridlarini fraksiyalab cho‘ktirish orqali gomogen polisaxaridlarni ajratib olish;

-*Ficus carica* va *Morus multicaulis* o'simliklari glyukogalaktanlarining tuzilishini kimyoviy va spektral (GX, GX/MS va YaMR spektroskopiya) usullar bilan aniqlash;

-*Ficus carica* va *Morus multicaulis* o'simliklarining suvda eruvchan polisaxaridlari, pektin moddalarining biologik faolliklarini aniqlash;

-*Ficus carica* va *Morus multicaulis* o'simliklari pektin moddalarining atsetamizol, substansiyasi bilan kompleksini yaratish uchun muqobil sharoitlarini tanlash va biologik faolligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyektlari** sifatida O'zbekiston hududida o'suvchi *Ficus carica* va *Morus multicaulis* o'simliklarining barglari olingan.

**Tadqiqotning predmeti:** suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalar, gemitsellulozalar, glyukogalaktanlar.

**Tadqiqotning usullari.** Polisaxaridlarning tuzilishini o'rganish uchun kimyoviy: ekstraksiya, to'liq kislotali gidroliz, qisman kislotali gidroliz, metillash, atsetillash, xromli oksidlash;

analitik usullar: polisaxaridlarning tarkibini sifat va miqdoriy tahlil qilish, pektin moddalarining eterifikatsiyalanish darajasini aniqlash va titrimetrik usuli.

fizik-kimyoviy usullar: SEM, EDS, IQ, GX, GX/MS,  $^{13}\text{C}$  va  $^1\text{H}$  YaMR spektroskopiyasi, ikki o'lchamli gomo- ( $^1\text{H}$ , COSY, TOCSY) va geteroyadroli ( $^1\text{H}$ ,  $^{13}\text{C}$  YaMR (HSQC, HMBC) spektral va biologik usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor *Ficus carica* (GG-Fc) va *Morus multicaulis* (GG-Mm) o'simliklari polisaxaridlari glyukogalaktanlardan tashkil topganligi aniqlangan. *Ficus carica* (GG-Fc) makromolekulasining asosiy zanjiri  $\beta$ -1 $\rightarrow$ 3 galaktoza qoldiqlaridan iborat bo'lib, tarkibidagi glyukoza qoldiqlari  $\beta$ -1 $\rightarrow$ 3,  $\beta$ -1 $\rightarrow$ 4,  $\beta$ -1 $\rightarrow$ 6 glikozid bog'laridan iborat. GG-Mm makromolekulasi kam tarmoqlangan polisaxarid bo'lib, asosiy zanjiri  $\alpha$ -1 $\rightarrow$ 3 galaktoza qoldig'idan tashkil topgan. Yon zanjiridagi glyukoza qoldig'i asosiy zanjirdagi galaktozaning C-4 atomiga birikkanligi bilan izohlangan;

*Ficus carica* va *Morus multicaulis* pektin moddalarini qisman kislotali gidroliz qilish natijasida, asosiy zanjiri  $\alpha$ -1 $\rightarrow$ 4 galakturonandan tashkil topganligi, *Morus multicaulis* pektin moddasining asosiy zanjiri ramnogalakturonandan iborat ekanligi aniqlangan;

*Ficus carica* o'simligidan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridi yallig'lanishga qarshi, *Morus multicaulis* o'simligining suvda eruvchan polisaxaridi II tip diabetga qarshi yuqori faollikni namoyon qilishi aniqlangan;

ilk bor *Morus multicaulis* o'simligidan ajratib olingan pektin moddasining atsetamizol substansiyasi bilan suvda eruvchan kompleksini olishning muqobil sharoiti ishlab chiqilgan. *Morus multicaulis* o'simligi pektin moddasining eterifikatsiyalanish darajasining pastligi, uning tarkibidagi erkin karboksil (COOH) guruhlari miqdori yuqori ekanligi aniqlangan va uning atsetamizol bilan ion bog'lar orqali kompleks hosil qilganligini IQ, SEM, EDS usullarida isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*Ficus carica* o'simligidan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridi shamollashga, yallig'lanishga hamda *Morus multicaulis* o'simligining suvda eruvchan polisaxaridi esa II tip diabetga qarshi faolliklari yuqori ijobiy natijalarni namoyon etishi aniqlangan;

*Morus multicaulis* pektin moddalarining atsetamizol substansiyasi bilan kompleksi antigelmint preparatlarning eruvchanligining oshishi hisobiga kam dozada ham yuqori faollikni namoyon qilishi aniqlangan. Ushbu kompleks qo'ylarda uchraydigan marshallagioz, nematodiroz, oshqozon-ichak strongilyatozlariga qarshi yuqori natija ko'rsatganligi hamda atsetamizol substansiyasiga nisbatan, bir yarim barobar yaxshi samara berganligi aniqlangan;

olingan natijalar bioorganik kimyo va farmatsevtika sohalarida suvda eruvchan polisaxarid, pektin moddalar, gemitsellulozalarni ajratib olish va tuzilishini aniqlashda, shuningdek, o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarida amaliy dastur bo'lib xizmat qilishi mumkun.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi, polisaxaridlarning tarkibi, tuzilishi kimyoviy usullar, xromotografik (QX, GX YSSX, YSEX), zamonaviy fizik-kimyoviy (IQ, GX/MS,  $^1\text{H}$ ,  $^{13}\text{C}$ , COSY, HMBC, HSQC, TOCSY) YaMR spektrlari usullari hamda biologik usullarni qo'llash yordamida asoslangan va tasdiqlangan. Olingan natijalarning ishonchli ekanligi, ularni taqriz qiluvchi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi, xorijiy anjumanlarda muhokamadan o'tganligi bilan ishonchli tarzda izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilk bor O'zbekiston hududida o'suvchi *Ficus carica* va *Morus multicaulis* o'simliklari barglaridan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalarning tarkibi, xossalari va tuzilishlari aniqlangan. *Morus multicaulis* pektin moddasining atsetamizol substansiyasi bilan kompleksi, atsetamizolning amino guruhi ( $\text{NH}_2$ ) va pektin molekulasining karboksil guruhi ( $\text{COOH}$ ) bilan o'zaro ta'sirlashib kompleks tuz hosil qilishi natijada, kompleks eruvchanligining oshishi, ularning farmakologik samaradorligiga ijobiy ta'sir etishi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, *Ficus carica*, *Morus multicaulis* o'simliklarining suvda eruvchan polisaxaridlari yallig'lanishga va qandli diabetga qarshi faolliklari asosida kelgusida tabiiy biologik faol qo'shimcha (BFQ) yoki dorivor vosita yaratish mumkunligi aniqlangan. *Morus multicaulis* pektin moddasining atsetamizol substansiyasi bilan antigelmint faollikni namoyon etuvchi kompleksining olinishi, kelgusida veterinariya sohasi uchun yangi samarali dori vositalari yaratishda qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** *Ficus carica*, *Morus multicaulis* o'simligi bargidan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridlari, pektin moddalari, ularning makromolekulasi tuzilishi va biologik xossalarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

2022-2024 yillarda O'simlik moddalari kimyosi institutining Yuqori molekulari o'simlik moddalari kimyosi laboratoriyasida olib borilgan fundamental tadqiqotlar doirasida *Ficus carica* barglaridan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxarid

makromolekulasi tuzilishi, fizik kimyoviy xossalari, hamda ularning yallig‘lanishga qarshi, analgetik (og‘riq qoldiruvchi) va antipiretik (isitmani pasaytiruvchi) faolliklari aniqlangan. Mazkur natijalar institutning bazaviy hisobotlariga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024-yil 27- dekabrda №4/1255-2911-son ma’lumotnomasi). Natijada polisaxaridlar asosida suvda eruvchan biologik faol qo‘shimcha (BFQ) yoki yallig‘lanishga qarshi tabiiy dori vositasi yaratish imkoniyatini beradi;

*Morus multicaulis* o‘simligi bargidan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridlar II tip qandli diabetga qarshi (gipoglikemik) faollik namoyon qilganligi aniqlangan. Bu natijalar institutning Yuqori molekullari o‘simlik moddalari kimyosi laboratoriyasida 2022–2024 yillarda olib borilgan fundamental tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan va bazaviy ilmiy hisobotlariga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2024-yil 18-dekabrda №4/1255-2807-son ma’lumotnomasi). Olingan ilmiy natijalar kelgusida suvda eruvchan biologik faol qo‘shimcha (BFQ) yoki tabiiy antidiabetik vositasi yaratish imkoniyatini beradi;

*Morus multicaulis* pektin moddasining atsetamizol substansiyasi bilan kompleksining gelmintlarga qarshi faolligi qo‘ylarda sinab ko‘rilgan va olingan ijobiy natijalar O‘zR Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan (2025-yil 15-yanvar, №109/02-23-son ma’lumotnoma). Natijada, gelmintlarga qarshi yuqori samarali suvda oson eruvchan antigelmint kompleksni olish va amaliyotda qo‘llash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishi natijalari 8 ta, jumladan 5 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy- amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop qilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola, jumladan 2 tasi Scopus bazasida indekslangan xalqaro ilmiy jurnallarda, 3 tasi mahalliy ilmiy jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 85 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi, zaruriyati asoslab berilgan va respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, maqsad va vazifalari, tanlangan obyekt va predmetlari ifodalangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ochib berilgan hamda tadqiqot natijalarini joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ham ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘simlik polisaxaridlari orasida glukogalaktanlarning o‘rni va biologik faolligi”** deb nomlangan **birinchi bobida** mavzu bo‘yicha olib

borilgan tadqiqotlarning natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Ma'lumotlar umumlashtirilgan va ilmiy-tahliliy xulosalar chiqarilgan hamda ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida dissertatsiya ishining maqsadi, vazifalari, dolzarbligi va muhimligi belgilab berilgan.


Dissertatsiyaning "***Moraceae* oilasiga mansub o'simliklar polisaxaridlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida ikkita har xil turkumga mansub *Ficus carica* va *Morus multicaulis* o'simliklarini o'rganish natijasida olingan tadqiqot natijalari keltirilgan.

### ***Ficus carica* o'simligining suvda eruvchan polisaxaridlari**

*Ficus carica* o'simligi bargidan unumi 3.5% bo'lgan suvda eruvchan polisaxarid (SEPS) ajratib olingan va ularning monosaxarid tarkibi, fizik-kimyoviy parametrlari keltirilgan. SEPS tarkibi ramnoza, ksiloza, arabinoza, glukoza, galaktozadan 1.0:2.3:2.4:3.4:5.4 va uron kislotalaridan iboratligi aniqlangan. Uron kislotalari karbazol usulida aniqlanib, 34% ni tashkil etgan. Bundan SEPS neytral va kislotali polisaxarid aralashmasi ekanligini ma'lum bo'lgan. SEPSni neytral va kislotali polisaxaridlarga ajratish uchun dastlab DEAE-sellulozali kolonkadan (OH-shakli) suv bilan yuvilib, tarkibi arabinoza, glyukoza va galaktozadan iborat unumi 35% bo'lgan neytral polisaxarid (NPS) ajratib olingan. So'ngra, shu kolonka 0.1N NaOH eritmasi bilan yuvilib, monosaxarid tarkibi ramnoza, ksiloza, arabinoza, glyukoza, galaktoza va uron kislotasidan tashkil topgan, unumi 5.3% bo'lgan kislotali polisaxarid (KPS) ajratib olingan. NPS ni suvda eritib, etil spirtida fraksiyalab cho'ktirish natijada to'rtta fraksiya ajratib olingan, ulardan III fraksiya unumi jihatdan eng yuqori bo'lib, 36.4% ni tashkil etgan va sefadeks G-50 gel xromatografiya kolonkasidan o'tkazilganda gomogen deb topilib, glyukogalaktan GG-Fc deb nomlangan.

GG-Fc IQ spektrida 3259, 2300, 1567, 1410, 1195, 1086, 1045, 880  $\text{sm}^{-1}$ , monosaxarid qoldiqlariga xos xarakterli yutilish sohalarini namoyon etgan va 880 $\text{sm}^{-1}$  da yutilish sohalarining mavjudligi monosaxarid qoldiqlarining o'zaro  $\beta$ -glikozid bog'lari bilan bog'lanishini bildiradi. Ushbu taxminni tasdiqlash uchun polisaxarid dastlab asetillanib, so'ng xrom angidridda sirka kislota ishtirokida to'liq oksidlangan va gidrolizatda monosaxaridlar yo'qligi, polisaxaridlarning o'zaro  $\beta$ -glikozid bog'lari bilan bog'langanligini ko'rsatadi.

GG-Fcni makromolekulasidagi monosaxarid qoldiqlari qanday glikozid bog'lar bilan bog'langanligini bilish uchun, Xakomori usulida metillandi. Permetilatning to'liq metillanganligini IQ spektrida gidroksil guruhlarining 3259  $\text{sm}^{-1}$  da yutilish sohalari yo'qligidan va 1378  $\text{sm}^{-1}$  sohada metil guruhlarining mavjudligidan ko'rish mumkin (1-rasm).



**1-Rasm.** GG-Fc metil mahsulotining IQ-spektri

Permetilat formoliz, gidroliz qilindi, soʻngra atsetillab, gidrolizat GX/MS da koʻrilgan va natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-Jadval.** GG-Fc permetilatining gidrolizat tarkibini GX/MS usulida tahlili


Metil mahsulotlari	Fragmentlar tuzilishi	Unumi, %
2,3,4,6-tetra-OMe-Galp	$\beta$ -Galp1) $\rightarrow$	25.9
2,4,6-tri-OMe- Galp	$\rightarrow$ 3)- $\beta$ -Galp-(1 $\rightarrow$	25.2
2,6-di-OMe-Galp	$\rightarrow$ 3,4)- $\beta$ -Galp-(1 $\rightarrow$	10.1
2,3,4,6-tetra-OMe-Glcp	$\beta$ -Glcp- (1 $\rightarrow$	18.3
2,6-di-OMe-Glcp	$\rightarrow$ 3,4)- $\beta$ -Glcp1 $\rightarrow$	10.3
2,3,6-tri-OMe- Glcp	$\rightarrow$ 4)- $\beta$ -Glcp- (1 $\rightarrow$	2.5
2,3,4-tri-OMe-Glcp	$\rightarrow$ 6)- $\beta$ - Glcp-(1 $\rightarrow$	7.3


Asosiy mahsulot sifatida 2,4,6-tri-OMe-Galp mavjudligi GG-Fc makromolekulasidagi asosiy zanjiri 1,3 bogʻdan tashkil topgan, galaktopiranoza qoldiqlaridan iborat ekanligini koʻrsatadi. 2,3,4-tri-OMe-Glcp, 2,3,6-tri-OMe-Glcp, 2,6-di-OMe-Glcp boʻlishi glyukoza qoldiqlarining 1 $\rightarrow$ 6, 1 $\rightarrow$ 4, 1 $\rightarrow$ 3 glikozid bogʻlari bilan bogʻlanganligini koʻrsatadi.

GG-Fc tuzilishini  $^1\text{H}$ ,  $^{13}\text{C}$  YaMR, HSQC va HMBC spektroskopiyasi yordamida oʻrganildi.


Spektrdagi 84.2 m.u. va 83.8 m.u. kimyoviy siljishlar 1,3-bogʻlangan galaktoza qoldiqlari va 69.1 m.u. esa 1,6-bogʻlangan glyukoza qoldiqlari mavjudligini koʻrsatadi. 81.9 m.u. va 79.3 m.u. signallari galaktoza va glyukoza qoldiqlarining C-4 da tarmoqlanganligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalardan shuni aytish mumkinki, GG-Fc tarmoqlangan polisaxarid boʻlib, quyidagi koʻrinishga ega:





(a) (b)  
2-Rasm. GG-Fc <sup>1</sup>H (a) va <sup>13</sup>C (b) YaMR spektri



(a) (b)  
3-Rasm. GG-Fc HSQC (a) va HMBC (b) YaMR spektri

### *Ficus carica* o‘simligi pektin moddalarining fizik-kimyoviy xossalari

*Ficus carica* o‘simligining pektin moddalari (PM) oq rangli amorf kukun bo‘lib, suvda to‘liq eriydi, suvdagi qovushqoqliklari  $\eta_{\text{nis}} = 4.3$  (1.0%, H<sub>2</sub>O). Molekulyar og‘irliklari 67.7 kDa. PM miqdori va monosaxarid tarkiblari 2- jadvalda keltirilgan.

#### 2-Jadval. *Ficus carica* o‘simligi pektin moddalarining fizik-kimyoviy xossalari

PS	Unumi, %	M.o. kDa	Monosaxarid tarkibi va nisbatlari, GX					UAc, %
			Rham	Xyl	Ara	Glu	Gal	
PM	10.0	67.7	1.0	1.2	3.5	1.4	4.8	84.4
	$\eta_{\text{nis}}$ (c 1%, H <sub>2</sub> O)	PM ning titrimetrik tahlil natijalari, %						
	4.3	$K_e$ , %	$K_s$ , %	$\Xi_D$ , %				
		2.25</						

olingan natijaga ko‘ra, PM yuqori eterefikatsiyalangan PM qatorida bo‘lib, uning eterifikatsiya darajasi (ED) 72.2% ni tashkil etgan.

*Ficus carica* PM qisman kislotali gidroliz qilindi (1N. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, 4s, 100<sup>0</sup> C) va natijada asosiy zanjiri galakturon kislotasi qoldiqlaridan iborat galakturonan olindi. IQ spektrining yutilish sohalari quyidagi sohalarni qayd etgan: 3600-3487 sm<sup>-1</sup> (OH- guruhi), 1750-1747 sm<sup>-1</sup> (COOH- guruhi) va 830 sm<sup>-1</sup> (α-glikozid bog‘i). PM tarkibidagi piranoz halqasining tripleti 910, 875, 830 sm<sup>-1</sup>da galakturon kislotasi qoldiqlariga tegishli bo‘lib, 830 sm<sup>-1</sup> glikozid bog‘larining α-holatda ekanligini ko‘rsatadi. *Ficus carica* galakturonanning <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektrlari 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-Jadval. *Ficus carica* galakturonanining <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektrlari

PS qoldiqlari	kimyoviy siljishlari, D <sub>2</sub> O					
	C-1	C-2	C-3	C-4	C-5	C-6
	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H
→4)- α-D-GalpA-(→	98.8/4.81	68.2/3.95	71.3/4.12	77.8/4.02	67.9/3.90	175.3/-
						52.8/3.81

*Ficus carica* galakturonanining <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektrida anomer signallari 4.81 m.u. va 98.8 m.u sohalarda namoyon bo‘lgan. <sup>13</sup>C YaMR spektrida galakturonanning 1.4 bog‘idan iborat ekanligi 77.8 m.u. sohalarda keltirilgan va karboksil guruhi 175.3 m.u. sohada intensiv signal bilan izohlanadi (3-jadval).

Shunday qilib, *Ficus carica* o‘simligining barglaridan ajratib olingan pektin moddalarining asosiy zanjiri α-1→4 galakturonandan tashkil topgan bo‘lib, yuqori eterifikatsiyalangan pektinlar qatoriga kiradi.

### *Morus multicaulis* o‘simligi bargining suvda eruvchan polisaxaridi

*Morus multicaulis* o‘simligining SEPS – oq rangli kukun bo‘lib, suvda yaxshi eriydi, suvdagi nisbiy qovushqoqligi η<sub>nis</sub> = 1,3 (1,0%; H<sub>2</sub>O). SEPSning IQ spektrlari 3241, 2307, 1570, 1538, 1412, 1236, 1075, 1048, 863, 839 sm<sup>-1</sup> sohalari yutilish sohasini namoyon etgan. *Morus multicaulis* spirtli ekstraktlari QX usulida tahlil qilinganda, tarkibida saxaroza va fruktoza borligi aniqlangan. SEPSning tarkibi asosan ramnoza, ksiloza, arabinoza, mannoza, glyukoza, galaktoza va galakturon kislotasidan iborat bo‘lib, tarkibidagi uron kislotalari 30.2% tashkil etgan (4-jadval).

### 4-Jadval. *Morus multicaulis* o‘simligi bargining suvda eruvchan polisaxaridi va ularning fizik-kimyoviy xossalari


Polisaxarid	Unumi, %	M.o. kDa	η <sub>nis</sub> (1%, H <sub>2</sub> O)	Monosaxarid tarkibi va miqdorlari, %						UAc, %
				Rham	Xyl	Ara	Man	Glu	Gal	

SEPS	6.9	45	1.3	7.8	9.1	8.45	6.5	10.4	25.35	30.2
------	-----	----	-----	-----	-----	------	-----	------	-------	------

SEPS DEAE-sellulozali kolonkadan (OH-shakli) o‘tkazilib, tarkibi ramnoza, ksiloza, arabinoza, mannoza, glyukoza, galaktozadan iborat, unumi 67.9 % neytral (NPS) va tarkibi ramnoza, ksiloza, arabinoza, mannoza, glyukoza, galaktoza va uron kislotasidan tashkil topgan, unumi 18.3% kislotali polisaxaridlar (KPS) ajratib olindi. NPSni suvda eritib, etil spirtida fraksiyalab cho‘ktirish natijasida to‘rtta fraksiya ajratib olindi. Ajratib olingan I, III, IV fraksiyalar tarkibi QX va GX da tahlil qilinib, tarkibi ramnoza, ksiloza, arabinoza, mannoza, glyukoza va galaktozadan tashkil topganligi ma‘lum bo‘ldi. Ulardan faqat II fraksiya unumi jihatdan eng yuqori (32.7%) bo‘lib, sefads G-50 gel xromatografiya kolonkasidan o‘tkazilganda gomogen deb topildi va II fraksiya tarkibi glyukoza va galaktozadan tashkil topgan glyukogalaktan bo‘lib, GG-Mm deb nomlandi.

GG-Mm glikozid bog‘ining konfiguratsiyasini aniqlash uchun asetillangan glukogalaktan xrom angidridda sirka kislota ishtirokida oksidlandi. Reaksiya mahsulotining tahlili shuni ko‘rsatdiki, gidrolizatni QX da ko‘rilganda galaktoza va glyukoza qolqig‘i topildi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, GG-Mm makromolekulasidagi monosaxarid qoldiqlari  $\alpha$ -glikozid bog‘idan iborat.

GG-Mm makromolekulasidagi monosaxarid qoldiqlarining o‘zaro qanday glikozid bog‘lar bilan bog‘langanligini bilish uchun, Xakomori usulida metillandi. Permetilatning to‘liq metillanganligini IQ spektrida gidroksil guruhlarining 3200-3400  $\text{cm}^{-1}$ da yutilish sohalari yo‘qolishidan va 1378  $\text{cm}^{-1}$  sohada metil guruhlarining mavjudligidan ko‘rish mumkin (4-rasm).




**4-Rasm.** GG-Mmni metil mahsulotining IQ spektri

Permetilatni formoliz, gidroliz qilindi, so‘ngra  $\text{NaBH}_4$  da qaytarib, atsetillab GX/MSda tadqiq qilindi. Natijada 2,3,4,6-tetra-OMe-Galp (15.65%), 2,4,6 tri-OMe-Galp (7,39 %), 2,6-di-OMe-Galp (1,51 %), 2,3,4,6- tetra-OMe-Glcp (6,51%) dan tashkil topgan metil mahsulotlari olindi.


GG-Mm permetilati gidrolizatining GX-MS tahlilida, asosiy mahsulot sifatida 2,4,6-tri-OMe-Galp mavjudligidan, GG-Mm makromolekulasining asosiy polimer zanjiri, 1,3 galaktopiranoza qoldiqlaridan iborat ekanligi aniqlandi. 2,6-di-OMe-Galp ning mavjudligi asosiy zanjirning tarmoqlanganligini va Glcp qoldig‘i  $\alpha$ -holatda ushbu galaktopiranoza qoldig‘ining C-4 atomiga birikkanligini ko‘rsatadi.

GG-Mm ning kimyoviy tuzilishini  $^1\text{H}$ ,  $^{13}\text{C}$  YaMR spektroskopiyasi hamda HSQC, TOCSY, HSQC-TOCSY va HMBC spektral tajribalari yordamida aniqlandi.

$^1\text{H}$  va  $^{13}\text{C}$  YaMR spektrida  $\delta_{\text{C}}/\delta_{\text{H}}$  99.1/4.97 (C-1/H-1), 68.3/3.83 (C-2/H-2), 84.1/4.36 (C-3/H-3), 69.3/3.99 (C-4/H-4), 71.2/3.94 (C-5/H-5) va 61.1/3.74 (C-6/H-6) m.u. larda galaktopiranoza qoldiqlarining proton va uglerod atomlarining intensiv signallari aniqlandi. Shuningdek,  $^{13}\text{C}$  YaMR spektrida  $\delta_{\text{C}}$  98.5 va 100.5 m.u. sohalarda anomer uglerod atomlarining signallari keltirilgan bo'lib,  $\alpha$ -galaktopiranoza va  $\alpha$ -glyukopiranoza qoldiqlari mavjudligini ko'rsatadi. Glyukogalaktan (GG-Mm) asosiy zanjiri  $\alpha$ -1 $\rightarrow$ 3 galaktopiranoza qoldiqlaridan iboratligi HMBC spektida kuzatilgan 5.27 (H-1) / 84.2 (C-3) kross-piki asosida xulosa qilindi. Yon zanjirdagi glyukoza qoldig'i 81.0 m.u. sohada signali namoyon bo'lgan.




5-Rasm. GG-Mmning  $^1\text{H}$  (a) va (b)  $^{13}\text{C}$  YaMR spektri



6-Rasm. GG-Mmning (a) HSQC va TOCSY (b) YaMR spektri

Shunday qilib, glyukogalaktan - GG-Mm kam tarmoqlangan polisaxarid bo'lib, asosiy zanjiri  $\alpha$ -1,3-glikozid bog'laridan tashkil topgan galaktopiranoza qoldiqlaridan iborat.

Yon zanjiridagi glyukoza qoldig'i  $\alpha$ -holatda bo'lib, asosiy zanjirdagi galaktoza qoldig'ining C-4 atomiga birikkan fragmentlari quyidagi ko'rinishga ega:



### ***Morus multicaulis* pektin moddalarining fizik-kimyoviy xossalari**

*Morus multicaulis* o‘simligining PM krem rangli amorf kukun bo‘lib, suvda to‘liq eriydi, suvdagi nisbiy qovushqoqligi  $\eta_{\text{nis}} = 4,04$  (1,0 %, H<sub>2</sub>O) teng. Pektin moddasining fizik-kimyoviy parametrlari va monosaxarid tarkibi 5-jadvalda keltirildi.

**5-Jadval. Pektin moddasining fizik-kimyoviy parametrlari va monosaxarid tarkibi**

PS	Unumi, %	M.o. kDa	Monosaxarid tarkibi va nisbatlari, GX					UAc, %
			Rha	Xyl	Ara	Glu	Gal	
PM	11.0	43,0	3.8	3.2	4.7	1.0	5.1	72.6
	$\eta_{\text{nis}}$ (c 1%, H <sub>2</sub> O)		PM titrimetrik parametrlari, %					
	4.04		K <sub>e</sub> , %		K <sub>et</sub> %		E <sub>D</sub> , %	
			10.35		7.65		42.5	

Titrimetrik natijalarga ko‘ra, pektin moddasining eterifikatsiya darajasi 42.5% teng bo‘lib, u quyi eterifikasiyalangan pektin hisoblanadi. Uron kislotalarining miqdori karbazol usulida aniqlanib, 72.6% tashkil etdi.

*Morus multicaulis* o‘simligi pektin moddasini qisman kislotali gidroliz qilindi (1N. H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, 4s, 100<sup>0</sup> C) va natijada asosiy zanjiri ramnogalakturonandan tashkil topgan pektin fragmenti olindi. IQ spektr yutilish chiziqlariga ko‘ra, quyidagi sohalarini namoyon qildi: 3195, 1750, 950, 889, 810-807 sm<sup>-1</sup>. Ushbu yutilish sohalarining mavjudligi galakturonan kislotasi qoldiqlariga tegishli bo‘lib, 810 - 807sm<sup>-1</sup> glikozid bog‘lanishlarining  $\alpha$ -holatda ekanligini ko‘rsatdi.

**6-Jadval. Pektin fragmentining <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C, HSQC YaMR spektr natijalari**

PS qoldiqlari	Kimyoviy siljishlari, D <sub>2</sub> O					
	C-1	C-2	C-3	C-4	C-5	C-6
	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H	<sup>13</sup> C / <sup>1</sup> H
→4)- $\alpha$ -D-GalpA-(→	98.8/4.98	76.6/3.92	72.8/3.38	78.0/3.85	71.1/4.10	174.9/-
→2)- $\alpha$ -Rhap-(→	99.2/4.77	76.8/4.0	73.3/3.56	75.3/4.02	70.7/3.80	16.5/1.13

*Morus multicaulis* pektin fragmentlarining signallari <sup>1</sup>H va <sup>13</sup>C YaMR spektri olinib, natijalari 6-jadvalda keltirildi. <sup>1</sup>H, <sup>13</sup>C YaMR spektrida anomer signallari 4.98 m.u., 4.77 m.u. va 98.8 m.u., 99.2 m.u. sohalarida namoyon bo‘lgan. <sup>13</sup>C YaMR spektrida 1,4 galakturon va 1,2 ramnoza qoldiqlaridan iborat ekanligi 78.0 m.u., 76.8

m.u. sohalardagi signallar bilan izohlanadi. *Morus multicaulis* PM tarkibidagi karboksil guruhlarining mavjudligi 174.9 m.u. sohada keltirilgan. C-6/H-6 atomlarida 16.5/1.13 m.u. sohasidagi kimyoviy siljishlar ramnozaning metil guruhiga tegishli signallarni namoyon etgan.


Shunday qilib, *Morus multicaulis* o'simligi barglaridan pektin moddalari ajratib olindi va ularning fizik-kimyoviy xossalari aniqlandi. *Morus multicaulis* PMning asosiy zanjiri  $\alpha$ -1 $\rightarrow$ 4 galakturon kislotasi va  $\alpha$ -1 $\rightarrow$ 2 ramnoza qoldiqlaridan tashkil topganligi aniqlandi. *Morus multicaulis* o'simligining pektin moddalari *Ficus carica* o'simligining pektin moddasidan molekulyar og'irligi, uron kislotalari miqdori, eterifikatsiyalanish darajasi va glikozid bog'lari bilan farq qiladi.

### ***Morus multicaulis* o'simligi pektin moddalarining amin saqlovchi antigelmint substansiyasi bilan kompleksi va ularning fizik-kimyoviy xossalari**

Hozirgi kunda gelmint kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, ushbu kasallik sababli millionlab insonlar aziyat chekadi. Shu munosabat bilan, mahalliy xomashyolardan olingan polisaxaridlar bilan benzimidazol qatoriga kirgan, amaliyotga joriy etilishi ko'zda tutilgan, substansiyalar bilan keng qamrovli biokimyoviy tadqiqotlar olib borish, maqsad qilindi va O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutining sintetik preparatlar laboratoriyasida atsetamizol (AS), propidamizol (Pro), albendazol (Al) antigelmint preparatlarning yangi analoglari sintez qilinib, chorva mollarida uchraydigan turli gelmintlarga qarshi antigelmint faollikka ega, yangi iqtisodiy samarador sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi amaliyotga joriy qilingan. Olingan substansiya ham yuqorida qayd qilingan preparatlar kabi suvda yaxshi erimaydi va zaharlilik darajasi ham yuqori. Shu sababli, atsetamizol substansiyasi *Morus multicaulis* o'simliklaridan ajratib olingan pektin moddalari bilan kompleksi 1:2, 1:5, 1:7 nisbatlarda qo'shilib, ultratovush ta'sirida bir soat davomida aralastirildi. Olingan nisbatlar orasidan 1:2 nisbatda yuqori eruvchanlikni namoyon qilib, optimal deb topildi. Olingan kompleks shartli ravishda pektin moddasi *Morus* + atsetamizol (PMM+AS) deb nomlandi va ularning kompleksi IQ, SEM, EDS spektroskopiya usullarida tadqiq qilindi.

